



Xalq so'zi

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 14-may, № 93 (8716)

Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



XITOIY BILAN HAMKORLIK JADAL RIVOJLANIB BORAYOTGANI MAMNUNIYAT BILAN QAYD ETILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 13-may kuni Hamkorlik bo'yicha O'zbekiston — Xitoy hukumatlararo qo'mitasining navbatdagi yig'ilishida ishtirok etish uchun mamlakatimizda bo'lib turgan Xitoy Xalq Respublikasi Davlat kengashi Bosh vaziri o'rinbosari Lyu Gochjun boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



Xitoy delegatsiyasi rahbari O'zbekiston yetakchisiga XXR Raisi Si Szipin va Davlat kengashi Bosh vaziri Li Syanning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Ko'p qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirish va barcha sharoitlarda strategik sheriklik munosabatlarini chuqurlashtirishning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi. Joriy yil yanvar oyida Xitoyga amalga oshirilgan oliy darajadagi tashrif yakunida erishilgan kelishuvlar ijrosining borishi tahlil qilindi.

Qo'mita faoliyati samarali natijalar berayotgani, tovar ayirboshlash va jalb etilayotgan investitsiyalar hajmi barqaror oshayotgani, muntazam aviaqatnovlar soni ko'payib borayotgani, madaniy tadbirlar faol o'tkazilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Savdo ko'rsatkichlarida muvozanatni ta'minlash va mamlakatimiz mahsulotlarining Xitoy bozoriga kirishi uchun qulay sharoitlar yaratish, iqtisodiyotning strategik tarmoqlarida muhim investitsiya loyihalarini jadallashtirish, hududlar kooperatsiyasini kengaytirish, gumanitar, ta'lim va turizm dasturlarini amalga oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Bundan tashqari, Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston temir yo'lini qurish loyihasi bo'yicha ishlarning amaliy bosqichini tez fursatda boshlash bilan bog'liq jihatlar muhokama qilindi.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati surati.

GEOLOGIYANING MUHIM YO'NALISHIDA OLIB BORILAYOTGAN ISHLAR KO'RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 13-may kuni ko'mir qazib chiqarishni oshirish rejalari taqdimoti bilan tanishdi.

Aholi va iqtisodiyotning o'sib borayotgan ehtiyojini ta'minlash uchun energetikaning barcha yo'nalishlari rivojlantirilmoqda. Jumladan, muayyan tarmoqlarda ko'mirdan foydalanish qo'l keladi. Hisob-kitoblarga ko'ra yurtimizdagi ko'mir zaxiralari qariyb 2 milliard tonnani tashkil etadi.

Bu imkoniyat ishga solinib, ko'mir qazib olish hajmi izchil oshirib kelinmoqda. Xususan, 2016-yilda bu ko'rsatkich yiliga 4 million tonnadan kam bo'lgan bo'lsa, 2023-yilda 6 million 550 ming tonnaga yetdi.

Davlatimiz rahbari konlarga investorlarni jalb qilib, yangi loyihalarni amalga oshirish zarurligini aytgan edi. O'tgan yili bu borada sezilarli siljish bo'lib, tadbirkorlar tomonidan 369 ming tonna ko'mir qazib qilingandi.

Taqdimotda sohadagi rejalari haqida ham axborot berildi. Qayd etilganidek, bu yil ko'mir qazib chiqarish 8 million tonnaga yetkaziladi. Shundan 900 ming tonnasi tadbirkorlar tomonidan olinadi. "Sharg'unok'mir" aksiyadorlik jamiyatida yiliga 500 ming tonna ko'mirni boyitish uskunasi ishga tushiriladi.

Surxondaryo, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlaridagi to'rtta maydonda geologiya ishlari olib borilmoqda va kelgusi yilda qazib chiqarishga yo'naltiriladi.

Shu bilan birga, ilg'or xorijiy tajribani qo'llagan holda ko'mir qatlamlarini baholash va burg'ilash ishlari davom ettirilmoqda. Bularning natijasida 2025-yilda ko'mir qazib chiqarish hajmini 10 million tonnaga yetkazish rejalashtirilgan.

Mutasaddilarga sohada xalqaro standartlarni joriy etib, ko'mir sifatini oshirish, investitsiya loyihalarini jadallashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

O'N BESHTA HUDUDDA IT-SHAHARCHA TASHKIL ETILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyevga mamlakatimizda raqamli texnologiyalarni rivojlantirish, bu sohada yoshlarni va loyihalarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari bo'yicha axborot berildi.

Davlatimiz rahbari bu haqda o'tgan yili 20-dekabr kuni Raqamli texnologiyalar vazirligiga tashrifi chog'ida topshiriq bergan edi.

So'nggi yillarda bu soha juda tez rivojlanib, mutaxassislar va xizmatlar ko'payib bormoqda. Xususan, 2017-yilda yurtimizda IT kompaniyalar soni 147 ta bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda 2 mingga yaqinlashdi. Ularda 30 ming xodim yuqori daromadli ish bilan band. 70 mingdan ziyod yoshlar IT bilan mustaqil shug'ullanayapti.

Joriy yilning o'tgan to'rt oyida sohadagi xizmatlar hajmi 20 foizga o'sdi, 200 million dollarlik eksport qilindi, 5 mingga ish o'ri yaratildi.

Lekin hududlar kesimida qaraganda, IT xizmatlari va eksportining asosiy ulushi Toshkent shahriga to'g'ri keladi. Mutaxassislarning 80 foizi shu yerda yashaydi.

Shu bois bu sohani chekka hududlarda ham rivojlantirish maqsadida, IT-shaharchalar tashkil etish rejalashtirilgan.

(Davomi 2-betda).



OSIYO XOTIN-QIZLARI FORUMI ISHTIROKCHILARIGA

Hurmatli Forum qatnashchilari!

Xonimlar va janoblar!

Avvalambor, siz azzizlarni — dunyoning olis va yaqin mintaqalaridan tashrif buyurgan muhtaram mehmonlarimizni Osiyo xotin-qizlari forumining ochilishi munosabati bilan chin qalbindan samimiy muborakkob etaman.

Sizlarni qadimiy va navqiron Samarqand shahrida qizg'in qutlash hamda o'zining yuksak hurmat-ehtiroim va ezgu tilaklarini yo'llashdan g'oyat baxtiyorman.

Ushbu tashabbusimizni faol qo'llab-quvvatlagan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi janob Antoniu Guterrishga, anjumanni birgalikda tashkil etib, unda bevosita ishtirok etayotgan BMT Bosh kotibi o'rinbosari, "BMT-Ayollar" tuzilmasi ijrochi direktori Sima Sami Baxus xonim, BMTning Jenevadagi bo'linmasi rahbari Tatyana Valovaya va Parlamentlararo Ittifoq Bosh kotibi Martin Chungong xonimlarga o'zining chuqur minnatdorchiligimni izhor etaman.

Bugungi Forumda xalqaro tashkilotlar va Osiyo mamlakatlari parlamentlari rahbarlari, senator va deputatlar, hukumatlar a'zolari, shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlari, ko'plab ishbiarmon va olimlarning qatnashayotganini katta mamnuniyat bilan ta'kidlashni istardim.

Sizlarning sa'y-harakatingiz bilan yurtimizda ilk bor o'tkazilayotgan xalqaro anjuman xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-gumanitar sohalaridagi faolligini yanada oshirish, o'zaro tajriba almashish va do'stona hamkorlik aloqalarini mustahkamlashga munosib hissa qo'shadi, deb ishonaman.

Hurmatli tadbir ishtirokchilari!

Bugungi kunda dunyoda jadal rivojlanib borayotgan Osiyo qit'asining barcha mamlakatlari va xalqlari asrlar davomida yagona keng makonda uyg'un va hamjihatlikda rivojlanib, turli sohalarida yaqin hamkorlik aloqalarini olib borganlar.

Buyuk Ipak yo'lining savdo chorrahasida

joylashgan Markaziy Osiyo mintaqasi ming yillar mobaynida turli madaniyatlar va sivilizatsiyalar taraqqiyoti uchun qudratli kuch bag'ishlagan, yuksak umumbashariy qadriyatlarining ulkan ma'naviy beshigi bo'lgan.

So'nggi yillarda Yangi O'zbekiston Osiyo qit'asining ham barcha mamlakatlari bilan uzoq muddatli, keng qamrovli va o'zaro manfaatli aloqalarini izchil chuqurlashtirib borishga ustuvor ahamiyat qaratayotgani bejiz emas, albatta.

Sayyorimiz aholisining yarmidan ko'pi istiqomat qilayotgan Osiyo mamlakatlari Barqaror rivojlanish maqsadlariga to'liq erishish, gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlarning haq-huquqlarini himoya qilish, ularning davlat va jamiyat boshqaruvidagi roli va ta'sirini keskin oshirish borasida salmoqli yutuqlarni qo'lga kiritmoqda.

Bizning mamlakatimizda ham ayollar jamiyatimizning ajralmas bo'g'ini bo'lib, ularning huquq va manfaatlarini to'liq ta'minlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish masalalari yangi qabul qilingan Konstitutsiyamiz, "O'zbekiston — 2030" strategiyasi va O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi kabi konseptual hujjatlarda o'zining to'liq ifodasini topgan.

So'nggi yetti yilda O'zbekistonda xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi 27 foizdan 35 foizga ko'tarildi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining 32 foizi, Senat a'zolarining 25 foizi ayollardan iborat. Bugun har bir mahallamizda ham ularning o'z vakillari bor.

Ishbiarmon ayollar safi ikki barobar kengayib, o'z biznesini yo'lga qo'ygan ayollar soni 205 mingdan oshdi. Yuz minglab ayollar kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitildi. Salkam yarim million nafar singillarimiz ish bilan ta'minlandi. Hozirgi kunda oliygohlarda ta'lim olayotgan talabalarining yarmidan ziyodini qizlar tashkil etmoqda.

Bu borada olib borayotgan tizimli chora-tadbirlarimiz xalqaro hamjamiyat

tomonidan ham munosib e'tirof etilmoqda. Xususan, Jahon banki indeksida O'zbekiston gender tenglik sohasida dunyodagi eng tez rivojlanayotgan 5 ta mamlakat qatorida qayd etilgan, ochiq gender ma'lumotlar indeksida eng yaxshi 20 ta davlat qatoridan joy olgani bizga alohida mamnuniyat bag'ishlaydi.

Qadrlidi to'stari!

Biz Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, rahbarlik qobiliyatini va tadbirkorlik salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, ularga zamonaviy bilim berish, kasb-hunarga o'qitish va bandligini ta'minlash, ehtiyojmand va ko'makka muhtoj ayollarning muammolarini tizimli hal qilish bo'yicha boshlagan katta ishlarni bundan keyin ham izchil davom ettiramiz.

Zero, bugungi tarixiy o'zgarishlarning faol ishtirokchisi bo'layotgan muhtarama ayollarimiz — ortga qaytmaz tus olgan demokratik islohotlarimiz va jadal taraqqiyotimizni amalga oshirishda bunyodkor kuch, biz qurayotgan adolati va tinchliksevar, ko'p millatli va farovon mamlakatning mustahkam asosidir.

O'ylaymanki, sizlar ushbu Forumni har ikki yilda o'tkaziladigan an'anaviy muloqot maydoniga aylantirish bo'yicha taklifimizni har tomonlama qo'llab-quvvatlaysiz.

Bugungi anjuman natijasida qabul qilinadigan Samarqand deklaratsiyasi asosida kelgusida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining "Osiyo xotin-qizlarining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va madaniy-gumanitar faolligini oshirish to'g'risida"gi rezolyutsiyasining qabul qilinishi barchamizning bu boradagi ezgu intilishlarimizning yorqin amaliy ifodasi bo'ladi.

Fursatdan foydalanib, barchangizga yana bir bor sifat-salomatik, baxt va omad, Forum ishiga ulkan muvaffaqiyat tilab qolaman.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

Muloqot

ALOQALARNI YANADA KENGAYTIRISH MASALALARI — MUHOKAMA MARKAZIDA

Samarqand shahrida xotin-qizlarning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy huquq va imkoniyatlarini kengaytirish masalasiga bag'ishlab o'tkazilayotgan forumda 30 dan ziyod xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlardan nufuzli mehmonlar ishtirok etmoqda. Ulardan ayrimlari bilan parlamentimiz yuqori palatasi Raisi o'rtasida muloqotlar o'tkazildi.

Xususan, Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva "BMT-Ayollar" tuzilmasining Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari bo'yicha mintaqaviy direktori Belen Sans Luke bilan muzokara o'tkazdi.

Uchrashuvda O'zbekistonning BMT va uning ixtisoslashtirilgan tuzilmalari bilan hamkorligi o'zaro aloqalar tarixida yuqori darajaga ko'tarilgani alohida qayd etildi.

O'zbekiston Respublikasining QONUNI

O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida

Qonunchilik palatasi tomonidan 2024-yil 30-yanvarda qabul qilingan
Senat tomonidan 2024-yil 30-martda ma'qullangan

Keyingi yillarda mamlakatimizda zargarlik sanoatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga, zargarlik buyumlari eksportini oshirishga, shuningdek turizm sohasini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash uchun har tomonlama imkoniyatlar yaratishga qaratilgan salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ayni vaqtda zargarlik tarmog'ini sanoatning asosiy drayverlaridan biriga aylantirish, zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish va ularning savdosini bo'yicha faoliyatni qo'llab-quvvatlash, shuningdek tadbirkorlik subyektlarining xomashyoga bo'lgan ehtiyojlarini qanoatlantirish maqsadida ushbu Qonun bilan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan qimmatbaho toshlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinishini nazarda tutuvchi qo'shimcha kiritilmoqda.

Shu bilan birga turizmni yanada rivojlantirish, bolalar sog'lomlashtirish oromgohlarining samarali faoliyatini amalga oshirish uchun ularni qo'llab-quvvatlash va ularga zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida ushbu Qonun bilan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksini kasaba uyushmalari tizimidagi bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari negizida bolalarning dam olish mavsumidan tashqari davrda tashkil etiladigan dam olish uylarini va dam olish zonalarining mazkur yo'nalishdagi xizmatlarni ko'rsatishdan olgan foydasi solig'idan ozod qilinishi to'g'risidagi norma bilan to'ldirish nazarda tutilmoqda.

Bundan tashqari "Turizm to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga kasaba uyushmalari tizimidagi bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari negizida bolalarning dam olish mavsumidan tashqari davrda tashkil etiladigan dam olish uylari va dam olish zonalarini majburiy sertifikatlashtirishdan ozod etilishini nazarda tutuvchi o'zgartirish kiritilmoqda.

Ushbu Qonun mahalliy zargarlik buyumlarini ishlab chiqaruvchilarni xomashyo resurslari bilan ta'minlashga va ularning eksport salohiyatini oshirishga, shuningdek turizmni rivojlantirishga va yangi ish o'rinlarini yaratishga xizmat qiladi.

1-modd. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrda qabul qilingan O'Q-599-sonli Qonuni bilan yangi tahrirda tasdiqlangan **O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi** (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnoma, 2019-yil, 12-songa 1-ilova; 2020-yil, № 3, 198-modd, № 10, 593-modd, № 11, 652-modd, № 12, 690, 691-moddalar; 2021-yil, № 1, 6-modd, № 4, 294-modd, 4-songa ilova, № 8, 800-modd, № 9, 901-modd, № 10, 968, 969, 972, 973-moddalar, № 12, 1199-modd; 2022-yil, № 2, 79-modd, № 3, 215, 216-moddalar, № 5, 461, 464, 467-moddalar, № 6, 570-modd, № 7, 664, 666-moddalar, № 12, 1190-modd; 2023-yil, № 6, 444, 446-moddalar, № 7, 540-modd, № 12, 1011-modd) **483-moddasi** quyidagi mazmundagi **qirg to'qqizinchi va elliginchi qismlar** bilan to'ldiriladi:

«Zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan qimmatbaho toshlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish qo'shilgan qiymat solig'idan 2024-yil 1-yanvardan 2027-yil 1-yanvargacha qadar bo'lgan davrda ozod qilinadi.

Kasaba uyushmalari tizimidagi bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari negizida bolalarning dam olish mavsumidan tashqari davrda tashkil etiladigan dam olish uylarining va dam olish zonalarining mazkur yo'nalishdagi xizmatlarni ko'rsatishdan olgan foydasi 2026-yil 1-yanvargacha qadar bo'lgan davrda foyda solig'idan ozod qilinadi».

2-modd. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyulda qabul qilingan "Turizm to'g'risida"gi O'Q-549-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnoma, 2019-yil, № 7, 387-modd; 2021-yil, 4-songa ilova, № 10, 968-modd; 2022-yil, № 6, 570-modd; 2023-yil, № 11, 923-modd) **21-moddasiga** quyidagi o'zgartirishlar kiritiladi:

birinchi qism quyidagi mazmundagi **birinchi va ikkinchi qismlar** bilan almashiriladi:

«Joylashtirish vositalari, tog' chang'i issiqlari va plyajlar majburiy ravishda sertifikatlashtirilishi lozim, bundan ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Kasaba uyushmalari tizimidagi bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari negizida bolalarning dam olish mavsumidan tashqari davrda tashkil etiladigan dam olish uylari va dam olish zonalarini joylashtirish vositalari sifatida majburiy sertifikatlashtirishdan ozod etiladi»;

ikkinchi — beshinchi qismlar tegishincha **uchinchi — oltinchi qismlar** deb hisoblanadi.

3-modd. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi va boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o'rtasida tushuntirilishini ta'minlash.

4-modd. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi: hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin; respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari ushbu Qonunga zid bo'lgan o'z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlash.

5-modd. Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Ushbu Qonun 1-moddasi ikkinchi xatboshisining qoidalari 2024-yil 1-yanvardan e'tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoyev

Toshkent shahri,
2024-yil 13-may
№ O'Q-926

O'N BESHTA HUDUDDA IT-SHAHARCHA TASHKIL ETILADI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Loyihaga ko'ra bunday maskanlar dastlab 15 ta hududda — Chimboy, G'ijduvon, Zomin, Sharof Rashidov, Forish, Xatirchi, Pop, Shahrisabz, Qo'shrabot, Sariosiyo, Sirdaryo, Parkent, Toshloq va Tuproqqal'a tumanlari hamda Xonobod shahrida tashkil qilinadi. Ularda yiliga 10 mingga yaqin yoshlar IT, chet tili va boshqa zamonaviy kasblar bo'yicha bepul o'qitiladi.

Prezidentimiz shaharchalar yoshlar uchun qulay joyda bo'lishi, ularda yuqori malakali mutaxassislar dars berishi zarurligini ta'kidladi.

— Shiddat bilan o'zgarayotgan davrda hamma sohaga axborot texnologiyalarini biladigan kadrlar kerak. Bu sohada xizmatlar uchun ham, eksport uchun ham eng asosiy resurs bu — malakali mutaxassislar. IT-shaharchalar bu yo'lida yoshlarga qanot bo'ladigan, zamonaviy kasblarga o'rgatadigan tizim bo'lishi kerak, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Rivojlangan davlatlarda IT sanoatini rivojlantirishda startaplarni qo'llab-quvvatlashdan keng foydalaniladi. Yurtimizda ham bunday loyihalar bo'yicha talonlilar o'tkazib kelinmoqda. Lekin bu borada shaffoflikni oshirish, loyihalarga natijadorlik asosida grant ajratish zarurati mavjud.

Shuning uchun IT ta'lim va dasturiy mahsulot yo'nalishidagi loyihalar bo'yicha 1 milliard so'mgacha bo'lgan startaplar tanlovini IT-park orqali o'tkazish taklif etilmoqda.

Davlatimiz rahbari bu tanlovda ham, xuddi "President Tech Award" tanlovidagi kabi nufuzli xalqaro kompaniyalar tomonidan baholashni yo'lga qo'yish zarurligini ta'kidladi.

Sun'iy intellekt dasturlarini yaratish va qo'llash bo'yicha ham muvaffaqiyatli ish olib borilmoqda. Jumladan, biometrik identifikatsiyalash uchun "My ID" tizimi rivojlantirildi. Bugungi kunda 28 ta bank va 5 ta davlat tashkiloti mazkur tizimga ulandi. U orqali 8 million 200 mingdan ortiq foydalanuvchilar ro'yxatdan o'tdi.

"Muxlisa" nomli o'zbek tilidagi ovozi yordamchi ishlab chiqilmoqda. Ushbu ishlanmani turli zamonaviy texnika vositalariga o'rnatish mo'ljallangan.

Raqamli texnologiyalar sohasini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida sun'iy intellekt va kosmik faoliyatga oid normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish vazifasi qo'yildi.

Shuningdek, taqdimotda Yagona kommunal xizmatlar platformasini joriy etish bo'yicha ham axborot berildi. Bu onlayn platforma orqali iste'molchilar 8 ta kommunal tashkilot xizmatlari uchun to'lovlarni amalga oshirishi mumkin bo'ladi. Unda 14 tadan ortiq idoralar ma'lumotlarini bir nuqtada jamlash hamda avtomatlashtirilgan ravishda taqsimlash imkoniyati paydo bo'ladi.

O'zA.

ALOQALARNI YANADA KENGAYTIRISH MASALALARI – MUHOKAMA MARKAZIDA

Ayniqsa, keyingi yillarda gender tenglik, xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash, imkoniyatlarini kengaytirish yo'nalishida "BMT-Ayollar" tuzilmasi bilan hamkorlik yangi bosqichga ko'tarilgani aytib o'tildi.

Muloqotda Xotin-qizlarning jamiyatlardagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi bilan mazkur tuzilma o'rtasida qo'shma loyihalarni amalga oshirish orqali hamkorlikni yanada mustahkamlash masalalari ko'rib chiqildi.

Ayni chog'da gender budgetlashtirish, gender statistikasi va gender audit yo'nalishlarida o'zaro tajriba o'rganish, ilg'or amaliyotlarni joriy qilish yuzasidan fikr almashildi.

Munosabatlarni yanada rivojlantirish maqsadida hamkorlik bo'yicha tegishli hujjat loyihasini ishlab chiqish hamda unda aniq yo'nalishlarni belgilashga kelishib olindi.

Forum doirasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva Ozarbayjon Respublikasi Milliy Majlisi Raisi Saxiba Gafarova bilan uchrashuv o'tkazdi.

Muloqot avvalida tomonlar ikki davlat rahbarlarining ochiq va do'stona munosabatlari mamlakatlar o'rtasidagi aloqalarning rivojlanishida mustahkam asos bo'layotgani qayd etildi.

Uchrashuvda yuqori darajadagi ikki tomonlama kelishuvlar ijrosini ta'minlash, jumladan, savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya, madaniy-gumanitar va boshqa sohalaridagi qo'shma loyihalarni huquqiy jihatdan ta'minlash bo'yicha parlamentlarning o'zaro hamkorligiga alohida e'tibor qaratildi.

Tomonlar xalqaro tashkilotlar va parlamentlararo tuzilmalar doirasida aloqalarni yanada mustahkamlash va bir-birini qo'llab-quvvatlashdan manfaatdor ekanligini bildirdi.

Shuningdek, Saxiba Gafarova O'zbekiston tashabbusi bilan ilk marotaba tashkil etilayotgan Osiyo xotin-qizlari forumi ayollarning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy huquq hamda imkoniyatlarini kengaytirishda muhim maydon bo'lishini ta'kidlab, forum ishiga muvaffaqiyat tiladi.

Uchrashuv yakunida tomonlar ikki davlat tadbirkor ayollari o'rtasidagi aloqalarni yanada faollashtirishga hamda yosh parlamentariylar muloqotini jadallashtirishga kelishib oldi.

"Xalq so'zi".

AYOLLAR HUQUQLARI, IMKONIYATLARI VA ILG'OR MINTAQAVIY YONDASHUVLAR

Forumdan ko'zlangan maqsad — mintaqada xotin-qizlarning imkoniyat va salohiyatini ro'yobga chiqarish masalalarini muhokama etish, ularning iqtisodiyotdagi ishtirokini yanada kengaytirish, davlat va jamiyat boshqaruvida xotin-qizlarning rolini mustahkamlash masalalarida tajriba almashish uchun o'ziga xos muloqot maydonini yaratishdan iborat.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning tadbir qatnashchilariga yo'llagan murojaatini Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva o'qib eshittirdi.

— Mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotida, muhim qarorlar qabul qilinishida xotin-qizlar ishtiroki sezilarli ravishda kengayib bormoqda, — dedi Senat Raisi. — Qisqa davr ichida sohaga doir xalqaro standartlarga mos milliy qonunchilik bazasi shakllantirildi, so'nggi besh yilda 80 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilangani bunga yorqin misoldir. "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi hamda "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi va amaliyotga keng joriy etildi.

Shuningdek, ayollar uchun imtiyozli

kredit va maxsus kvotalar ajratilgani, magistraturada o'qiydigan opa-singillarimizning shartnoma to'lovlari to'liq Davlat budgetidan qoplab berilishini davlat o'z zimmasiga olgani va natijada bugungi kunga kelib qiz bolani o'qitmaslik, ular uyda o'tirishi kerak, degan qarashlarga barham berilayotgani qayd etildi.

Shu sa'y-harakatlar tufayli hozirgi paytda oliy ta'lim muassasalarida o'qiyotgan talabalarining yarmidan ko'pini qizlar tashkil etmoqda. Ayollarimiz shu paytgacha an'anaviy bo'lgan ta'lim, tibbiyot va tikuvchilik yo'nalishlaridan tashqari raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari sohalarida ham o'zlarini to'la namoyon qilayotir.

Forumning asosiy qismida BMT Bosh kotibi o'rinbosari va "BMT-Ayollar" tuzilmasi ijrochi direktori Sima Sami Baxus, BMTning Jenevadagi bo'limi bosh direktori Tatyana Valovaya, Parlamentlararo Ittifoq Bosh kotibi Martin Chungong hamda delegatsiyalar rahbarlari tabrik nutqlari bilan qatnashdi.

Xususan, Sima Sami Baxus xonim O'zbekistonda xotin-qizlar huquqini himoya qilishga alohida e'tibor qaratilayotgani uchun davlatimiz rahbariga minnatdorlik bildirdi.



So'z — forum ishtirokchilariga

Sima Sami BAXUS, BMT Bosh kotibi o'rinbosari, "BMT-Ayollar" tuzilmasi ijrochi direktori:



— O'zbekiston Prezidentiga mamlakatda xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini targ'ib qilishga sodiqligi, ushbu forumni o'z vaqtida o'tkazish tashabbusi uchun minnatdorlik bildiramiz.

Ma'lumki, bugun dunyo bo'ylab mehnat qonunchiligida teng huquqlik kuchaytirilmoqda. Gender tenglikni ta'minlash borasida ko'plab sohalarida, jumladan, iqtisodiy sohada muvaffaqiyatga erishildi. Masalan, O'zbekistonda teng qiymatdagi mehnatga teng haq to'lash joriy etildi. Ish bilan ta'minlash, xotin-qizlarni sanoat korxonalarida va xavfli deb topilgan ishlarga jalb qilish bo'yicha cheklorlar olib tashlandi. Biz bu qarorlarni mamnuniyat bilan qabul qilamiz.

Jahonning ko'plab mamlakatlarida rahbarlik lavozimlarida ayollar uchun kvotalar va direktorlar kengashi a'zolari haqiqatga aylandi. Onalar o'limi qisqarishi davom etyapti. Boshlang'ich ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lgan qizlar soni tobora ortib borayotir.

Ammo shuni ham aytish kerakki, yuz berayotgan inqirozlar qo'proq xotin-qizlarga o'z salbiy ta'sirini o'tkazmoqda. Har uchinchi ayol zo'rvonlik va ta'qibga duchor bo'lmoqda. Asosiy sabab kamsituvchi normal va qonunchilik tizimlaridir. Ayollar o'rtasida ishsizlik darajasi 50 foizni, erkaklar orasida esa 30 foizni tashkil etadi.

Rivojlanishni moliyalashtirish bo'yicha majburiyatlarga gender muammosini kiritish, gender jihatlarini hisobga oladigan iqtisodiy va ijtimoiy siyosat yuritish, xotin-qizlar tashkilotlari va birlashmalarini moliyalashtirish zarur. Asosiy, bir jamoa bo'lib harakat qilish, umumiy qarashlarni shakllantirish, umumiy yechimlarni ishlab chiqish va umumiy hisobdorlikni ta'minlashni zimmasizga olish uchun birlashamiz.

Bizni tarixiy Samarqandda qabul qilgani uchun O'zbekiston hukumati yana bir bor minnatdorlik bildiramiz.

Olga SHPILEVSKAYA, Belarus xotin-qizlar ittifoqi raisi:



— O'zbekistonda Osiyo xotin-qizlar forumi tashkil etilishi ahamiyatli nuqtayi nazaridan juda yuqori. Chunki bugungi kunda jahon iqtisodiyotida eng katta ulushga ega mamlakatlar Osiyo mintaqasida joylashgan. Shuning uchun ham bu qit'ada sodir bo'layotgan barcha voqea va jarayonlar global ahamiyatga ega.

Biz Osiyo davlatlari sog'liqni saqlash, innovatsiyalar va texnologiyalar yo'nalishlarida jadal rivojlanayotganiga va muvaffaqiyatiga guvoh bo'lyapmiz. Bu borada to'plangan tajribalar bilan o'rtoqlashish, agar kerak bo'lsa, ularni o'zlashtirish barchamiz uchun birdek foydalidir.



— Gender tenglik ko'plab sohalarida, jumladan, iqtisodiy sohada ham muvaffaqiyatga erishdi. Masalan, O'zbekistonda teng qiymatdagi mehnatga teng haq to'lash joriy etildi, ish bilan ta'minlash borasidagi turli cheklorlar olib tashlandi. Biz bu sa'y-harakatlarni mamnuniyat bilan qabul qilamiz, — dedi Baxus xonim.

Shu bilan birga, u barchani rivojlantirishni moliyalashtirish bo'yicha majburiyatlarga gender istiqbollarni kiritish, gender jihatlarini hisobga olgan holda iqtisodiy va ijtimoiy siyosat yuritish, xotin-qizlar tashkilotlari va birlashmalarini moliyalashtirish, jamoaviy harakatni kuchaytirish, xususan, umumiy qarashlarni yaratish va yechimlarni ishlab chiqish, birgalikda harakatlanish hamda umumiy javobgarlikni ta'minlash yo'lida birlashishga chaqirdi.

Forumda qayd etilganidek, bugungi kunda Osiyo qit'asida 4,82 milliard kishi yashaydi, bu dunyo aholisining 60,6 foizi, deganidir. Qit'a aholisining 2,3 milliard yoki 48,8 foizini ayollar tashkil etadi.

Hozirgi vaqtda xotin-qizlarning

siyosiy va iqtisodiy masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilish jarayonidagi to'laonli ishtirokini ta'minlash, mehnat munosabatlarda zo'rvonlik va turli shakldagi kamsitishlardan munosib tarzda himoya qilish bo'yicha butun dunyoda keng ko'lamdagi sa'y-harakatlar olib borilmoqda.

Shu kabi chora-tadbirlarga qaramay, globallashuv jarayonlari jadal davom etayotgan hozirgi murakkab bir sharoitda inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etib borayotgani ham ayni haqiqat.

Shundan kelib chiqib, forumning birinchi kunida tashkil qilingan parallel sessiyalarda ayni shu masalalarga keng urg'u berildi. Ularda xotin-qizlarning fan, ta'lim, innovatsion faoliyatdagi ishtiroki va raqamli texnologiyalardan foydalanishi, hozirgi global iqtisodiyotda ayollarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish orqali kambag'allikni kamaytirish hamda tadbirkorlik, yetakchilik va innovatsiyalarga jalb etish masalalari atroflicha muhokama qilindi.

imkoniyatlardan foydalanishda gender tafavutni bartaraf etish hamda xotin-qizlar va bolalarga nisbatan zo'rvonlikning barcha shakliga barham berish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Forum doirasida, shuningdek, "yashil" iqtisodiyot targ'iboti, iqlim o'zgarishining mintaqadagi gender muammolarga ta'siri, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishda nodavlat notijorat tashkilotlarining ilg'or tajribasi va innovatsion yondashuvlar masalalari ko'rib chiqilmoqda.

O'z navbatida, forum davomida oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash yo'nalishlari bo'yicha Malayziya, Filippin, Hindiston, Pokiston, Kuvayt hamda Turkiya davlatlari bilan anglashuv memorandumlari imzolandi.

Bugun forum ishtirokchilari o'z ishini parallel sessiyalarda davom ettiradi.

Mazkur xalqaro anjuman yakuni bo'yicha Samarqand deklaratsiyasi qabul qilinishi rejalashtirilgan.

Abdulaziz YO'LDOSHEV ("Xalq so'zi").

Tabiiyki, biz ham jarayonning bir qismiga aylanishga, jamiyatda xotin-qizlarning zamonaviy fanlarga bo'lgan qiziqishini yanada oshirishni qo'llab-quvvatlashga, ushbu yo'nalishlar bo'yicha barcha ishtirokchi davlatlar bilan o'zaro hamkorlik qilishga tayyormiz.

Shu o'rinda "Woman in Tech" xalqaro tashkilotimiz Markaziy Osiyo davlatlari ichida birinchi bo'lib O'zbekistonda o'z faoliyatini yo'lga qo'yg'anligini mamnuniyat bilan ta'kidlaymiz. Muhimi, hozirgacha qo'lga kiritgan natijalarimiz chakki emas.

Samarqand forumi mazkur yo'nalishdagi sa'y-harakatlarimizga yangi sur'at berishiga ishonamiz. Negaki, bu yerda biz Osiyo mamlakatlarining xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va gender tenglikni ta'minlash borasidagi ilg'or tajribalari bilan yaqindan tanishish hamda turli davlatlar va tuzilmalardan kelgan hamkasblarimiz bilan o'zaro muloqot o'rnatish imkoniga ega bo'lyapmiz. Albatta, ushbu muloqotlar yaqin kelajakda o'z samarasini bera boshlaydi. Shu ma'noda, forumni o'zaro muloqot maydoni, desak, mubolag'a bo'lmaydi.



Tursunoy MURATOVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:

— Samarqand shahri mezbonligida o'tkazilayotgan Osiyo xalqaro xotin-qizlar forumi Prezidentimiz tashabbusining amaldagi kengaytirishda o'zaro tajriba almashish, muhim mavzularda fikrlashish imkoniyatini taqdim etayotgani bilan nihoyatda ahamiyatlidir.

Nufuzli anjumaning birinchi kunida xotin-qizlarning fan, ta'lim va innovatsion faoliyatdagi ishtirokini ta'minlash, raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, hozirgi global iqtisodiyotda ularning imkoniyatlarini kengaytirish orqali kambag'allikni qisqartirish, gender tenglik, ayollar va bolalarga nisbatan kamsitishning barcha shakliga barham berish, jamiyatda ularning ishtirokini rag'batlantirishga oid bir qator masalalar keng muhokama qilindi. Xotin-qizlarning ta'lim olishini qo'llab-quvvatlash, bu boradagi to'siqlarga barham berishga qaratilgan aniq taklif va tavsiyalar ekspertlar, olimlar va siyosatshunos ayollar tomonidan ilgari surildi.

Shuningdek, Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda xotin-qizlar ishtiroki masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi.

Ishonamizki, Samarqand forumida bildirilayotgan fikr-mulohazalar va tavsiyalar qit'amiz xotin-qizlari uchun har tomonlama foydal va manfaatli bo'ladi.

Gulnora MA'RUFOVA, Oliy Majlis Senati a'zosi:

— Bugungi kunda mamlakatimizda xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirish borasida keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida parlament va mahalliy Kengashlarda deputat ayollar soni ko'paydi. Kelgusida bu

ko'rsatkichning yanada ortishi kunda tutilgan.

Qolaversa, rahbarlik lavozimlaridagi xotin-qizlar safi ham ancha kengayib bormoqda. Ular o'z hududlarida yashayotgan yoki ijtimoiy og'ir vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarga har jihatdan yordam berib kelmoqda.

Shuningdek, bugungi kunda xotin-qizlar bandligini ta'minlash, ularni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi.

Osiyo xotin-qizlar forumida xorijiy davlatlardagi siyosatchi ayollar, parlamentlar vakillari bilan bu borada fikr va o'zaro tajriba almashayapmiz. Ayniqsa, alohida-alohida sessiyalarda nafaqat mintaqamiz, balki Osiyo davlatlari uchun dolzarb bo'lgan masalalar ko'rib chiqilmoqda.

Hozirdan aytish mumkin, Samarqand forumi o'zaro fikr almashish va bu boradagi ilg'or tajribalarni o'zlashtirishimizda o'ziga xos platforma bo'lib xizmat qiladi, albatta.

Muqaddas TIRKASHEVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:



— Osiyo xotin-qizlar forumi dunyo tarixida ilk bor tashkil etilmoqda. Ushbu tarixiy tadbir osiyolik xotin-qizlarning turli sohalaridagi imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiluvchi yondashuvlarini muhokama etish uchun muhim platforma vazifasini o'taydi.

Forum davomida ko'rib chiqilgan mavzularning ko'lami va rang-barangligi e'tiborimizni tortdi. Unda, birinchi navbatda, ayollarning mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy hayotini rivojlantirishdagi o'rni va rolini, ularning siyosiy faolligini oshirish borasida tajriba almashinildi. Xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash siyosati muvaffaqiyatli olib borilayotgan O'zbekiston tajribasi alohida e'tirof etildi.

Bundan tashqari, mintaqamizdagi ayollar duch kelayotgan umumiy muammolar muhokama qilinib, ularni hal etish yo'llarini izlashga e'tibor qaratildi. Shu ma'noda, forum xotin-qizlarning mavqegini oshirish uchun birgalikda harakat qilishga undaydigan g'oyalarni makoniga aylandi, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Anjuman faqatgina harakatlarimizni birlashtirish orqali haqiqiy o'zgarishlarni amalga oshirish mumkinligini yana bir bor tasdiqlab berdi. Qit'amizdagi 53 ta davlatda 2,3 milliarddan ko'p ayollar istiqomat qiladi. Bu esa Osiyo fuqarolarining 48,8 foiziga tengdir. Demak, mintaq ayollarining o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi, umumiy yulimiz — sayyoramiz ravnaqiga hissa qo'shishi mumkin bo'lgan adolati va teng huquqli jamiyat yaratish yo'lidagi sa'y-harakatlarimizni birlashtirishimiz lozim.

Tadbirga yargagan fikr-mulohazalar, tadqiqotlar natijalari mintaqamiz ayollarining imkoniyatlarini yanada kengaytirishga xizmat qiluvchi boshlang'ich nuqtaga aylanishiga ishonaman.

"Xalq so'zi".

Biz va jahon

O'zbekistonning yana ikkita madaniy meros obyekti UNESCO Jahon xotirasi qo'mitasi ro'yxatiga kiritildi

O'zbekiston tomonidan taqdim etilgan "Xudoybergan Devonovning Xorazm oazisi suratlari to'plami" va "Turkiston albomi (1871-1872-yillar)" hujjatlashtirilgan meros nomzodnomalari UNESCO Jahon xotirasi qo'mitasining Osiyo va Tinch okeani mintaqaviy ro'yxatiga bir ovozdan qabul qilindi.



Bu boradagi tegishli qaror 6 — 10-may kunlari Mo'g'uliston poytaxti Ulan-Bator shahrida bo'lib o'tgan UNESCOning Osiyo va Tinch okeani mintaqasi uchun Jahon xotirasi qo'mitasining o'ninchi bosh yig'ilishida ma'qullandi.

"Xudoybergan Devonovning Xorazm oazisi suratlari to'plami"da birinchi o'zbek kinotasvirchisi tomonidan XX asrning boshlaridan 40-yillariga qadar Xorazm vohasi tarixi aks ettirilgan bo'lib, u mazkur davrda ro'y bergan jarayonlarning nodir vizual dalili hisoblanadi.

To'plamdan joy olgan fotosuratlarida aks ettirilgan tarixiy hodisalar, siyosiy tuzumlarning o'zgarishi, etnografik va ijtimoiy xilmaxillik, aholining turmush tarzi va iqtisodiy faoliyatining o'ziga xosligi, moddiy, madaniy va badiiy ijod namunalari Xorazm mintaqasi tarixi haqidagi ishonchli manba hisoblanadi.

"Turkiston albomi (1871-1872-yillar)" ilmiy va tarixiy ahamiyatga ega nodir fotosuratlar va rangli tasvirlarni o'zida jamlagan. 10 jildidan iborat mazkur to'plamda tarixiy, arxeologik, etnografik va hunarmandchilik bo'limlari mavjud.

Ushbu albomda Turkiston o'lkasidagi tarixiy obidalar hamda qadimiy yodgorliklar, aholi turmush tarzi va kundalik hayoti, sanoat, hunarmandchilik, muhim harbiy-siyosiy jarayonlar va shaxslar aks ettirilgan.

UNESCO Jahon xotirasi qo'mitasining Osiyo va Tinch okeani mintaqaviy ro'yxati o'zida mintqa mamlakatlarning tarixiy va madaniy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan nodir hujjatlashtirilgan meros obyektlarini jamlagan.

Ma'lumot uchun: UNESCO Jahon xotirasi qo'mitasining ro'yxatiga shu vaqtga qadar O'zbekistondan Toshkent shahrida saqlanayotgan muqaddas Hazrati Usmon mus'hafi — Qur'oni (1997-yil), Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan qo'lyozmalar to'plami (1997-yil), Turkiston jamlamasi (2016-yil) va Xiva xonligi devonxonasi hujjatlari (2017-yil) kiritilgan.

"Dunyo" AA.
Parij

GLOBAL IQLIM O'ZGARISHLARIGA MILLIY MOSLASHUV

Bugun jahon hamjamiyati iqlim o'zgarishini insoniyat oldida turgan eng jiddiy muammolardan biri, deb tan olmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, har yili 1,4 mln. kishi toza suv yetishmasligi bois turli xastaliklar sabab hayotdan ko'z yummoqda. Ilim-fan taraqqiy etayotgan XXI asrda sayyoramizda har to'rt kishidan biri, ya'ni 2 mlrd. inson toza ichimlik suvi ta'minotiga ega emas. Dunyoda oqova suvlarning 44 foizi xavfsiz tarzda tozalanmasligi 3,6 mlrd. insonning xavfsiz sanitariya sharoitiga ega bo'lish huquqidan mahrum qilyapti.

Munosabat

2050-yilga borib suvga global talabning 55 foizga oshishi esa insoniyatni yana bir bor BMT platformasida chuqur mulohaza qilgan holda birgalikda harakatlarini tezlashtirishga chorlamoqda.

Keyingi 15 yil ichida mamlakatimiz aholisi jon boshiga suv ta'minoti 3 048 kub metrdan 1 589 kub metrga qisqargan. Jahon suv resurslari instituti tomonidan e'lon qilingan suv stressidan aziyat chekayotgan davlatlar reytingida O'zbekiston 164 ta mamlakat orasida 25-o'rinni egallaydi.

Dunyo aholisi soni ko'payib borar ekan, tabiiy resurslarga, birinchi navbatda, suv resurslariga ehtiyoj tobora ortadi. Yurtimizda mavjud suv resurslarining 91 foizi qishloq xo'jaligiga ishlatiladi. Bu esa suv tanqisligining oldini olish uchun eng maqbul chora sifatida ekinlarni sug'orishda suvni tejovchi texnologiyalarga o'tishni taqozo etmoqda.

Shu bois so'nggi yillarda mamlakatimizda suv resurslarini boshqarish va ularni muhofaza qilish borasida mukammal tashkiliy-huquqiy asoslar shakllantirildi. Xususan, sohaga doir ko'plab Farmon va qarorlar suv resurslaridan samarali foydalanishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilayotir.

Ushbu yo'nalishda olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida hozirgi kunda suvni tejaydigan texnologiyalar qamrovi sug'oriladigan maydonlarning qariyb 25 foizini tashkil etayotir. Natijada o'tgan yili salkam 7 mlrd. kub metr suv iqtisod qilingan holda, 830 ming gektar takroriy ekin maydonlarini sug'orishga yo'naltirildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shu yil 10-may kuni qishloq xo'jaligini iqlim o'zgarishiga moslashtirish, yerlardan samarali foydalanish va sohani ilmiy rivojlantirishga qaratilgan

takliflar taqdimoti bilan tanishish davomida ushbu masalalarga alohida e'tibor qaratib, mutasaddilar oldiga aniq vazifalarni belgilab berdi.

Mamlakatimizda 3 mln. gektar yaylov va ekin yerlari degradatsiyaga uchragan, 2 mln. gektarga yaqini turli darajada sho'rlangan. Xorijiy ekspertlar iqlim o'zgarishi sababli 2030-yilga borib, mintaqamizda suv resurslari qariyb 6 foizga qisqarishini aytmoqda. Bu esa o'z vaqtida zarur choralar ko'rishni taqozo etadi.

Aytish joizki, bu borada qishloq xo'jaligida iqlim o'zgarishiga moslashish va sohaning iqlimga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha 52 bandedan iborat milliy dastur ishlab chiqilgani ayni muddao bo'ldi. Sababi, ushbu dastur doirasidagi chora-tadbirlarga 294 mln. dollardan ortiq grant mablag'lari jalb qilinadi. Ushbu mablag'lar hisobidan esa Orolbo'yida 1 mln. gektardagi agroekologik landshaftlar hamda degradatsiyaga uchragan yaylovlar holati yaxshilanadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida ihotazorlar barpo qilinadi. Suv ta'minoti og'ir yerlarda qizilmiya, na'matak, kunjut, artemiya yetishtirish yo'lga qo'yiladi.

Shuningdek, iqlim o'zgarishini tahlil va bashorat qilish bo'yicha

SHIFOXONAGA TIBBIY USKUNALAR

TOPSHIRILDI

Qarshi shahridagi viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markaziga YUNISEF tomonidan qiymati 100 ming AQSH dollari qiymatidagi eng zamonaviy tibbiy uskunalar topshirildi.

Shu munosabat bilan uyushtirilgan tadbirda viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi mas'ullari, YUNISEFning yurtimizdagi vakolatxonasi vakillari hamda viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazi jamoasi ishtirok etdi.

Tibbiyot

— Ushbu tibbiy jihozlarning beshtasi Germaniyada ishlab chiqarilgan eng zamonaviy narkoz uskunalar bo'lib, og'ir bemorlarda tezkor jarrohlik amaliyotlarini bajarishda muhim ahamiyatga ega, — deydi markaz bosh shifokori To'lg'in



Rasulov. — Yana beshtasi Vyetnamda ishlab chiqarilgan zamonaviy SIPAP apparati hisoblanadi. Ushbu apparatlar bemor bolalarga sun'iy nafas berishda qo'llaniladi.

Shu kuni markazga uchta gemodializ apparati, shuningdek,

Jahongir BOYMURODOV ("Xalq so'zi").

bemorlarni qabul qilishda qulaylik yaratish maqsadida barpo etilgan yari majmua ham foydalanishga topshirildi.

Oziq-ovqat xavfsizligi:



Bugunning gapi

— Barchamizga yaxshi ayonki, dunyo oziq-ovqat bozorlarida narx-navo ko'tarilishi holati kuzatilyotir, — deydi u. — Albatta, bu yurtimiz bozorlarini ham chetlab o'tayotgani yo'q. Bilasiz, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi bu kabi muammolarning yanada kuchayishiga olib kelmokda. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotiga ko'ra sayyoramiz aholisining 30 foizi to'yib ovqat yemaydi. Ba'zi mamlakatlarda aholi to'yib ovqatlanmasligi oqibatida mikroelement va vitaminlar yetishmasligi muammosi dolzarb bo'lib turibdi. Oqibatda bolalarning bo'yi o'sishi, jismoniy va intellektual rivojlanish darajasi pasayishi ro'y bermoqda.

"Bu chet elda ro'y beryapti, bizda hamma narsa yetarli" deb beparvo bo'lish, muammolarga ko'z yumish yurt taqdiriga daxldor kitovining ishi emas. Vaholanki, bugungi kunda yurtimizda suv tanqisligi

va qurg'oqchilik sezilib turibdi, bu esa qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish sifati va salmog'iga jiddiy zarar yetkazishi mumkin.

Umuman, oziq-ovqat xavfsizligi muammosi dunyoda yuqori o'rnlardan birini egallab turgan bir paytda Yevropa Ittifoqi (YEI) bilan hamkorlikda "O'zbekiston Respublikasi qishloq hududlarida barqaror turmush tarzi hamda qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tarmog'ini rivojlantirishda budget ko'magi" loyihasi amalga oshirilayotganini aytib o'tish joiz. Joriy yil 25-aprel kuni YEI O'zbekiston hukumatiga qishloq xo'jaligida islohotlarni hayotga tatbiq qilish uchun 6 million yevro ajratgani ham fikrimizni tasdiqlab turibdi.

Mazkur grant oziq-ovqat xavfsizligi va sog'lom ovqatlanish bo'yicha strategiya hamda dasturlarni budgetlashtirish bo'yicha yo'riqnomalarni amalga oshirishga zaxar yetkazishi. Gruntidan tashqari

YEI tomonidan moliyalashtirilgan texnik yordam mamlakatimizda Qishloq xo'jaligi vazirligida islohotlarni jadallashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa ko'proq ish o'rnlari ochish, daromadlarni oshirish, xavfsiz va sifatlil ovqatlanish imkoniyatini beradigan bozorga yo'naltirilgan barqaror qishloq xo'jaligi sektoriga o'tishga ko'maklashadi.

Yevropa Ittifoqining O'zbekistondagi elchisi Sharlotta Adrianning fikrlariga ko'ra, qishloq oziq-ovqat sektori O'zbekiston iqtisodiyoti uchun o'ta muhim va aholi bandligini ta'minlashning muhim omilidir. O'zbekiston aholisi iste'mol qiladigan go'sht, sut, tuxum, sabzavot va meva-chevaning asosiy qismini fermer xo'jaliklari va tomonqachilar yetishtiradi. Grant mablag'lari Yevropa Ittifoqining "GSP+" (Barqaror rivojlanish va samarali bozorlaruv bo'yicha

maxsus preferensiyalar tizimi) va shu kabi boshqa tashabbuslari bilan birgalikda Yevropa mamlakatlariga eksport hajmini oshirishga ham yordam beradi.

O'zbekiston qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sektori uchun grant berish sohasida Yevropa Ittifoqi yetakchilik qilmoqda va u 2020 — 2023-yillar oralig'ida 32,5 mln. yevro taqdim etgan. Bundan tashqari, 2024-2025-yillarda 20 mln. yevro ajratish hamda 7 mln. yevro miqdoridagi texnik ko'mak dasturini moliyalashtirish belgilangan.

Shu o'rinda savol tug'iladi: mazkur grantlardan qanday foydalanilmoqda? Aytish joizki, Yevropa Ittifoqi tomonidan ajratiladigan grant mablag'larining bir qismi qishloq xo'jaligi sohasida chuqur bilimlarga ega va zamonaviy fikrlaydigan yangi avlod kadrlarini tayyorlash va ularni davlat xizmatiga jalb qilishga sarflanmoqda. Shu maqsadda har yili 20 nafar yigit-qizning qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi sohasida Italiyaning Tusha universitetida magistratura bosqichida o'qishga yuborilishi moliyalashtirilyapti.

Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligi va sog'lom ovqatlanishni ta'minlashga e'tibor qaratishni davmning o'zi taqozo etmoqda. Bu jarayonda tabiiy hamda texnogen ofatlar, global siyosiy va iqtisodiy inqirozlarning salbiy ta'siri oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va boshqarish tizimini yaratishda grant mablag'laridan foydalaniladi.

Ma'lumki, yurtimiz hududlari turli iqlim sharoitiga ega. Ba'zi hududlarda suv tanqisligi sezilib

turgan bo'lsa, bir qator viloyatlarda yerlar sho'rlanib ketgan. Ba'zi qishloq xo'jaligi yerlari degradatsiyaga uchrab, cho'llanish davom etmoqda. Shunday og'ir sharoitda tomorqa va dehqon xo'jaliklarida mahsulot ishlab chiqarish, qayta ishlashda innovatsion texnologiyalar va amaliyotlar joriy qilishni rag'batlantirishga ahamiyat qaratilmoqda.

Yana bir muhim jihat shundan iboratki, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarning iqlim o'zgarishi bilan bog'liq muammo va xatarlar yuzasidan bilim hamda ko'nikmalarini oshirish lozim. Bu yo'nalishda sohaning olim va ekspertlari yoylarda ilmiy tadqiqot loyihalarini amalga oshirmoqda. Bu ham mazkur grant loyihasi doirasidagi muhim vazifalar sirasiga kiradi. Qishloq xo'jaligida iqlim o'zgarishiga moslashish va sohaning iqlimga salbiy ta'sirini yumshatish doirasida ta'lim va maslahat tadbirlari ham moliyalashtiriladi.

Bugun yurtimizda mo'l-ko'chilik. Bozor rastalari qishin-yozin sarxil mevayu uzum, sabzavot va poliz mahsulotlari bilan serob. Eng muhimi, mahsulotlarimiz ekologik sof va tabiiy. Bunday to'kinlik, mo'l-ko'chilikka shukur qilish, uning qadriga yetish zarur.

Shunday bo'lsa-da, iqlim o'zgarishi va tabiiy resurslar tanqisligi yildan-yilga sezilayotgani bozorlarimiz fayziga ham raxna solmay qolmaydi. Zotan, jonajon diyorimizda mo'l-ko'chilik, qut-barakaning bardavom bo'lishi atrof-muhit sofligi va musaffoligini ko'z qorachig'idek asrashimizga bog'liqligini unutmaylik.

Faxriddin BOZOROV ("Xalq so'zi") yozib oldi.



markaz tuzilib, 5 ta viloyatda agrometeorologiya stansiyalari o'rnatiladi. Italiya bilan hamkorlikda Intensiv urug'chilik va ko'chatchilik xalqaro markazi, sho'rga va suvsizlikka chidamli ekinlar bo'yicha esa urug'chilik xo'jaligi tashkil etiladi.

Bilamizki, Amudaryoning quyi mintaqasida suvni tejash masalasi juda dolzarb. Shu sababli Qoraqalpog'istonda yerni lazerli tekislash xarajatlari uchun subsidiya ajratish rejalashtirilmoqda. Bunda paxta, boshqoli don va sholi yetishtiruvchilarga lazerli tekislangan har gektar maydonga sarflangan yonilg'i-moylash materiallari xarajatining 100 foizgacha qismini qoplash uchun Davlat budgetidan subsidiya berilishi e'tiborga mollikdir.

Birinchi bosqichda bu To'rtko'l, Beruniy va Amudaryo tumanlarida amalga oshiriladi. Natijada bunday maydonlarda hosildorlik o'rtacha 5 — 7 sentnerga oshadi va suv sarfi 15 — 20 foiz tejaladi. Bularning barchasi qishloq xo'jaligini rivojlantirish bilan birga, pirovardida odamlarning

turmush farovonligini oshirish, ular bandligini ta'minlashga turtki bo'ladi.

Endilikda biz, deputatlar mamlakatimizda olib borilayotgan demokratik islohotlarning huquqiy asoslarini ta'minlashga alohida mas'uliyat bilan yondashib, faollik ko'rsatishimiz lozim. Eng avvalo, sohaning huquqiy jihatlarini tartibga soluvchi asoslarni takomillashtirish, xususan, "aqlii qishloq xo'jaligi" tamoyili singdirilgan Suv kodeksini ishlab chiqishimiz kerak. Zero, ustuvor vazifalar har bir deputatni yanada faolroq bo'lishga, ushbu soha rivoji uchun samarali mehnat qilishga undaydi. Zalvarli vazifalarning hayotga keng tatbiq etilishi qishloq xo'jaligini iqlim o'zgarishiga moslashtirish, yer va suv resurslaridan samarali foydalanish orqali iqtisodiyot barqarorligiga erishish, aholi daromadlarini oshirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Mohira XO'JAYEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

Innovatsiya

Sirdaryoda paxta yetishtirishning xorij texnologiyasi ommalashmoqda

Joriy yilda Sirdaryo viloyati bo'yicha jami 3 ming gektar maydonga Xitoy texnologiyasi asosida chigit ekildi. O'tgan yili Sirdaryo tumanida 406 gektar maydonda tajriba tariqasida ayni shu usulda plynonka ostiga urug' qadalgan edi.

Mazkur agrotexnologiyaning o'ziga xosligi shundaki, chigit ekish, plynonka to'shash va tomchilatib sug'orish uchun shlang yotqizish ishlari zamonaviy texnika yordamida bir vaqtning o'zida amalga oshiriladi. Bu esa fermerlar uchun sezilarli darajadagi vaqt va mablag'ni tejash imkonini beradi.

Chigit yerga qadalgandan so'ng an'anaviy usullar bilan taqqoslaganda taxminan besh kun oldin unib chiqadi. Hosildorlik 50 sentnerdan ortadi. Ayni paytda paxta yetishtirishning Xitoy texnologiyasi qo'llanilayotgan maydonlarda chigit qiyg'os unib chiqib, baravaj rivojlanmoqda.

— Viloyatimizda yil sayin suvni

tejavchi, hosil tannaxrini arzonlashtirish va daromadni ko'paytirishga xizmat qiluvchi texnologiyalardan foydalanish ko'lami kengayib bormoqda, — deydi Sirdaryo viloyati hokimligining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha kotibiyati mudiri Ulug'bek Hakimov. — Xususan, joriy yilda tomchilatib sug'oriladigan paxta maydonlari 6500 gektarga yetdi. Kelgusi yilda Xitoy texnologiyasida paxta yetishtiriladigan ekin maydonlari 10 ming gektarga yetkaziladi va natijada tomchilatib sug'orish ko'lami yanada ortadi.

Ahmadali SHERNAZAROV ("Xalq so'zi").

Izlanish

PISTAZOR

BARPO QILINDI

Rishton tumanining "Navbahor" MFY hududidagi yillar davomida qarovsiz bo'lib yotgan yerga tadbirkor Qodirjon Qosimov tashabbusi bilan pistazor tashkil etildi.

Shu tariqa suvsiz, toshloq hududdagi 157 gektar yer o'zlashtirilib, 141 ming tupdan ortiq pista ko'chatlari hamda 54 mingga yaqin o'rik, gilos, shaftoli va nok ko'chatlari parvarishlanmoqda.

— Ayni paytda pista va boshqa turdagi ko'chatlarni "in vitro" usulida yetishtirish maqsadida maxsus ilmiy-tajriba markazi binosi qurilishi ishlari olib borilyotir, — deydi tadbirkor. — Shuningdek, bu yerdagi pistachilik ilmiy markazi, zamonaviy laboratoriya, issiqxonalar majmuasini o'zida jamlagan "Agromaktab" ham bunyod etilyapti.

Ma'lumki, an'anaviy usulda parvarishlangan pista ko'chati o'rtacha 10 — 12 yilda hosilga kirib, bir tup daraxtdan 200 —

300 gramm hosil olish mumkin. Ilim-fan yutuqlari asosida faoliyat ko'rsatadigan yangi plantatsiyada takomillashtirilgan texnologiyalar yordamida ko'chatxonada o'stirilgan niholga ikkinchi yili serhosil va sifatlil pista navlari kurtaklari payvand qilinadi. Uchinchi yili ushbu ko'chatlar ochiq maydonga ekilib, undan 7-8 yilda hosil olinadi. Hosildorlik salmog'i bir tupda 40 — 50 kilogrammgacha yetadi.

Hozirgi kunda tumanning kam hosilli, unisiz bog'lari o'rinda shu kabi pistazorlarni barpo etish maqsadida rishtonlik tadbirkorlar tomonidan o'nlab istiqbolli loyihalar hayotga tatbiq qilina boshlandi.

Botir MADIYOROV ("Xalq so'zi").

REKLAMA

O'zbekistonda raqamli inkluzivlik loyihasi

Kredit raqami: 7425-UZB

Xizmat tavsifi: Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki (IT Park) direksiyasi konsalting kompaniyalarini ("Maslahatchilar") ekologik va ijtimoiy javobgarlik rejasi (ESCP), Jahon bankining Ekologik va ijtimoiy standartlari (ESS) hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Loyihaning ekologik va ijtimoiy xavflarni boshqarish chora-tadbirlarini joriy etish va amalga oshirish uchun LAOG/IT-parkini qo'llab-quvvatlash bo'yicha konsalting xizmatlarini ko'rsatishga qiziqish bildirishga taklif qiladi.

Qiziqish bildirishning oxirgi muddati:
2024-yil 24-may, soat 15:00.

Batafsil ma'lumot uchun: udip@it-park.uz, 71 209 11 99.

O'zbekiston — Ozarbayjon:

YAGONA ILDIZLAR PAYVASTA MUSHTARAK MAQSADLAR

O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, adabiy aloqalar yildan-yilga, kundan-kunga mustahkamlanib, yanada barq urib, yashnab borayotir, desak, aslo mulohaj'a emas.

Qayd etish joizki, ikki qardosh millat o'rtasidagi birodarlik, do'stlik rishtalari uzoq o'timshga borib taqaladi. U asrlar mobaynida bir-biridan kuch olib shakllangan. To'g'ri, qaysidir davrlarda bu munosabatlarga chang solindi, qardosh xalqlar zo'rma-zo'raki uzoglashtirildi. Ammo istiqbol quyoshi

Taassurot

“O'zbeklar — jondoshlarimiz!”

O'zbekistondan Ozarbayjon sari yo'l olgan uchqoq ikki yarim soatdan so'ng davlatu dengiz osha Boku shahrida qad rostlagan Haydar Aliyev nomidagi xalqaro aeroportga qo'ndi. Uchoq oynasidan tomosha qilingan go'zalliklar — momiq va oppoq bulutlar, cheksiz kengliklar, tog'u daryolar hamda moviy dengizdan olgan taassurotimiz uzoglashib ulgurmay bizni yana bir ajoyib diydor onlari qarshi oldi: kutib olishga chiqqan tanish chehralar tafti ko'nglimizga ham ko'chdi.

Qardoshlar bilan aka-ukalar kabi ko'rishdik, quyuq so'rashdik, bir-birimizni bag'rimizga bosdik. Go'yo sog'ingan qalblarimiz taskin topdi, farog'at tuydi. Yo'l charchog'i ham birpasda unutildi. Ularning birinchi aytgan so'zi shunday bo'ldi: “O'zingizni begona o'lkaga keldik deb hisoblamang, Ozarbayjon — sizning ham yurtingiz, o'zbeklar — jondoshlarimiz!”



Avtoulovga yuklarimizni ortdigu qo'ningimiz — “Yangi Boku” mehmonxonasiga otlandik. Tayyoragoh shahardan chetda bo'lgani uchun safarimiz boshidanoq Bokuni tomosha qilish baxtiga musharraf bo'ldik. Hamrohlarimiz shaharni birma-bir tanishtirdi: “Mana bu “Olimpik” futbol stadioni, mana bu yaqinda bunyod etilgan binolar, mana bu olmon muhandislari qurgan yangi aylana ko'priki...”

Mehmonxonaga yetib keldik. Bizni kutib olgan xodimlar qo'limizdan yuklarimizni olib, o'z tilida salom berishdi, alik oldik. Keyin negadir ruscha gapira boshlashdi. Taassuf bilan bosh chayqadim va ozarbayjonchalab shunday dedim: “Qardosh, biz O'zbekistondan keldik. O'zbekiston ham turkiy o'lkalardan, binobarin, tillarimiz ham o'xshash. Siz o'z tilingizda, donadona qilib gapiring, bizni esa diqqat bilan eshiting. Shunda hech qiyinchiliksiz bir-birimizni tushuna olamiz...” Xodimlardan biri o'zbek ekanimizni bilgach ko'zlari chaqnab, mamnun alfozda so'z boshladi: “Ey, qardoshim, O'zbekiston — bizning jonajon, yaxshi ko'rgan o'lkamiz. Siz va biz degan so'z yo'q, hammamiz birimiz...”

U so'zi davomida o'zbek milliy taomlarini ijtimoiy tarmoqlar orqali ko'rgani, ayniqsa, palov yeyishni istashi, shuningdek, o'zbek qo'shiqlarini tinglashini aytdi. Tushunmagan bir-ikki so'zlariga bizdan izoh so'radi. Suhbatimiz ashuladan she'r'ga, she'rdan adabiyotga ulandi.

Ajoyib shaharga kelasizu chor devor ichida o'tirib bo'larmidi?! Darrov oyog'imizni qo'lga olib pastga tushdik, ko'cha sari odimladik. Yo'lda bir odamdand bu yaqinda do'konning qayerdaligini so'ragandik, darhol qayerdanligimizni surishtira ketdi. O'zbekistonlik ekanimizni bilgach quchoq ochib, “Xush kelibsiz, qardoshim, qarindoshim, joningiz sog' bo'lsin, nima xizmat bo'lsa, aytaveringlar”, dedi va do'kon sari erinmay boshlab bordi. Do'konga kirdik. Sotuvchi xuddi o'zimizning xolalarimizga o'xshagan 50 —

nur socha boshlagach bir-birining diydoriga tashna, suhbatlarini sog'ingan qalblar qayta uchrashdi.

Do'stlik, qardoshlik aloqalari bugun yangi bosqichda davom etayotir.

Yaqinda Ozarbayjon Milliy ilmlar akademiyasi va Dunyo yosh turk yozarlar birligining tashabbus va taklifi bilan Boku shahrida ikki millat ziyollari, yozuvchi-shoirlari, adabiyotshunos olimlari ishtirokida tashkil etilgan ilmiy anjumanlar, kitob taqdimotlari, adabiy kechalarda bunga yana bir bor guvoh bo'ldik.



qilgach mehmonxonaga qaytish taraddudiga tushdik. Ikki o'smir yigitdan qo'ningimiz nomini aytib, yo'l ko'rsatishini so'radik. Ular darrov qayerdan kelganimiz bilan qiziqdi. O'zbekistonlik ekanimizni bilishgach, bir ism aytishdi: Nodirbek Abdusattorov. Og'zidan gapini olib “Sizlar ham shaxmat o'ynaysizlarmi?” deya so'radik. “Yo'q, lekin Nodirbekning o'yinlarini ko'ramiz, xorijlik do'stlarga u o'zbekistonlik qardoshimiz deya maqtanamiz”, dedi. Ich-ichimizdan faxr tuydik. O'zbekiston yoshlari yuksak marralarni zabt etayotganiga, yurtimiz nomini butun dunyoga yoyayotganiga ishonch hosil qildik.

Safarimizning ertasi kuni rasmiy tadbirlar yo'qligi tufayli ixtiyorimiz o'zimizda, yana qadimiy va tarixiy joylarga, ayniqsa, O'zbekiston bilan bog'liq maskanga sayr qilishni rejalashtirdik.

Avvaliga qardoshlarimiz bizni shahardan uzoq bo'lmagan “Yonartog” tabiiy yodgorligiga olib bordi. Mazkur joy Obsheron yarim oroli, Muhammadiy qishlog'ida joylashgan bo'lib, ko'p asrlar ilgari dengiz sohilida tabiiy gaz chiqishi natijasida vujudga kelgan. Hayratlanarlisi shuki, tepalik yomasida yonayotgan olov kechayu kunduz, yozu qish o'chmaydi. Ma'lumotlarga ko'ra, u bir necha yuz yillardan beri yonadi, ba'zan alangasi 10 — 15 metr gacha yetadi. Ehtimol, Ozarbayjonning “Olovlar yurti” deya nomlanishi ham aynan mana shu joy bilan bog'liqdir. Bu yerga sayohatimiz yuraklarimizga olov soldi. Xalqlarimiz qalbidagi otash hech qachon so'nmasligini tilab, orqaga qaytdik.

Shahar markazida bunyod etilgan Alisher Navoiy haykalini ko'rganimiz ham safar daftarimizga alohida sahifa o'laroq yozildi. Hazrat Navoiy bobomizning haykali Mammad Amin Rasulzoda tumanidagi Alisher Navoiy parkida qad rostlagan. Yodgorlik boqqa o'zgacha salobat, ko'rk bag'ishlab turibdi.

Bog'da kechki sayrga kelgan, haykal tevaragidagi o'rindiqlarda kitob o'qiyotgan, quloqchinda qo'shiq tinglayotgan va farzandlarini aylantirishga olib chiqqan odamlarni ko'rdik. “Alisher Navoiy haqida qanchalik bilishadi”, degan o'y bilan bog'da aylanib yurgan Nasiba Vakilovani gapiga soldik.

— Alisher Navoiy — turkiy millatlarning faxri, iftixori, — deydi u. — Yaqinda “Xamsa” asari to'liq'icha tilimizga o'girilganidan xabar topdim. Ilgari bir qancha g'azallarini o'qiganman, yod olganman. Endi “Xamsa”ni ham o'qishni niyat qildim. Bu boqqa tez-tez kelamiz, sayr qilamiz, nabiralarimga Alisher Navoiyni tanishtiramiz, yodimda qolgan satrlarini o'qiyman. Xalqlarimiz do'stligida adabiyotning, she'riyatning alohida o'rni bor. Ishonchim komilki, bu do'stlik abadiy davom etadi.

Nasiba opa bir vaqtlar Samarqandga borgani haqida so'z ochdi. O'zbekistonda kechgan kunlari unutilmas bo'lgani, hozir ham eslab turishi, nabiralari bilan yana bir borishni niyat qilganini ta'kidladi. So'ng Alisher Navoiy g'azallaridan birini yoddan o'qidi. Bu mehribon buvi timsolida Ozarbayjon xalqining o'zbek xalqiga, adabiyotiga yuksak mehr-muhabbatini, ehtiromini ko'rdik. Ana shunday odamlar borligi uchun ham millatlarimiz o'rtasida birodarlik, ishonch ko'priklari mustahkam ekani, shubhasiz.

Rahmatjon BOBOJONOV

(“Xalq so'zi”).

Toshkent — Boku — Toshkent

...Ozarbayjon sari tugadi, biroq u yerda kechirgan unutilmas lahzalarning zavqu shavqi, lazati bitmadi. Uyg'a qaytish chog'ida ham taassurotlarimizni bir-birimizga so'zladik. Xalqlarimiz o'rtasidagi bordi-keldi uzilmasligi, oramizdagi mehr-muhabbat hech qachon so'nmasligi, hamisha do'st, yelkadosh, jondosh bo'lib yashashimizga ishonchimiz komil bo'ldi. Demak, mushtarak ildizlardan yagona maqsadlar sari yo'l olgan ikki davlat o'lk'a — O'zbekiston — Ozarbayjon do'stligi bundan keyin ham davom etib, yangi shakl va mazmun bilan boyib, yanada mustahkamlanib boraveradi...

Sog'inch

Ikki xalq dilbandi

Atoqli hofiz Jo'rabek Murodovning “O'zbekiston o'g'lidurman, tojigim gufto pisar” degan qo'shig'ini eshitib ta'sirlanmagan o'zbeku tojik topilmasa kerak. “Shiru shakar” deb atalgan bunday she'r'lar xalqlar o'rtasidagi qavmu qarindoshlik, o'zaro madaniy aloqalar zaminida vujudga kelgan. Tojikcha “shir” so'zi “sut” degan ma'noni anglatadi. Tojikistonda yashab, o'zbek tilida ijod qilgan mashhur g'azalnavis shoir O'lmas Jamol she'r'i asosida yaratilgan ushbu qo'shiq beradigan ma'naviy ozuqa ham ana shunday sut va shakar ta'midek yoqimli.

Bu she'r — shoirning tarjimai holi. Unda O'lmas Jamolning o'zbek zaminini Urgutda tug'ilib ulg'aygani, taqdir taqozosiga ko'ra Tojikistonning Dushanbe shahrida yashab, ishlab ijod qilgani, tojik xalqi shu asno uni “gufto pisar” — “o'z farzandi” deb bilgani haqidagi samimiy dil so'zlari mujassam.

O'lmas Jamol ko'plab o'zbek shoirlari, yozuvchilari bilan hammasi, hamdamu hamfikir bo'lib ijod qilgan. Ular o'rtasida do'stu birodarlik, bordi-keldi aloqalari hech ham uzilmagan. O'zaro hamnafaslik ijodda ham, hayotda ham birdek davom etgan. O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Erkin Vohidov shoir do'stining iqtidorini e'tirof qilgan holda, insoniy fazilatlari, jamiyatda tutgan o'rimga ham yuksak baho bergani shundan.

“Juda ko'p shoirlarimiz ikki tilda ijod qilganlar, ham forsiy, ham turkiy tilda, — deb yozgandi Erkin Vohidov. — Hazrat Navoiy shunday ikki tilda ijod qilgan zullisonayn shoirdirlar. O'zbek va tojik tillarida ijod qiluvchilardan yana biri O'lmas Jamoldir. Uning she'r'lari musiqasi bilan qo'shiq bo'lib dunyoga keladi. Shuning uchun atoqli hofizlar tomonidan qo'shiq bo'lib ijro etilgan. Bunday insonlar, shoirlar, arablar ikki qardosh xalq bir-biriga jigari bo'lgan, bir-biriga qadrdon, qadimdan bir-biriga jondosh va yondosh bo'lgan xalqlar o'rtasidagi ko'priki hisoblanadi”.

Erkin Vohidov, Abdulla Oripovga zamondosh shoirlar she'r'larini yod olib yurgan she'riyat ixlosmandlari ehtimol, uning nomiga har qadamda duch kelaverishmagan. Ammo Erkin Vohidov ta'бири bilan aytgandaki, “O'tgan asrning 50 — 60-yillarida adabiyotga kirib kelgan shoirlar orasida O'lmas Jamolning alohida o'rni bor, hech kimga o'xshamaydigan ovozi bor. Bir ajoyib nafosat, dilbarlik shabbodasi uning she'riyatidan esib turadi”.

Darhaqiqat, O'lmas Jamol qardosh Tojikistonda o'zbek she'riyatining tug'ini baland ko'tarib o'tgan dilbar shoir, sadoqatli do'st, bag'rikeng inson edi. O'sha yillarda biror ish yoki ijodiy safar bilan Tojikistonga borib qolgan o'zbek ijdokori yo'q'ki, bu kishi bilan uchrashmagan yoki uning xonadonida tongotar gurunglar qurgan bo'lsa.

Shoirming bir umr o'zbek xalqini alqab, o'zligini unutmay, ona tilda she'r'lar yozgani bir tomondan farzandlik burchi bo'lsa, boshqa tomondan ma'naviy jasorat ham edi. Chunki O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi aloqalarda shunday davrlar bo'ldiki, ular bir-biriga dushman ko'zi bilan qaray boshladi. Chegaralar yopilib, ikki yurtda yashagan oshnago'ayinlar bir-birini uzoq vaqt ko'rolmay qoldi.

Bunday sovuqlashuv O'zbekistonda taraqqiyotning yangi davri boshlanganiga qadar davom etdi. O'zbekiston rahbari Shavkat Mirziyoyev prezidentlik faoliyatining ilk yillaridanoq Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari o'rtasidagi integratsiyalashuv jarayonlariga jiddiy e'tibor qaratdi. “Yagona tarix — umumiy kelajak” shiori ostida amalga oshirilgan ishlar ikki daryo sohillarida azal-azaldan bir tanu bir jon bo'lib yashab kelgan xalqlarni yana jipslashtirdi, orzularini ro'yobga chiqardi.

O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi madaniy-ma'naviy rishtalarning yanada mustahkamlanishida O'lmas Jamol kabi atoqli ijdoklarning ham o'rni beqiyos. Zero, ularning asarlarini o'zbek va tojik xalqlari o'z yuragining bir parchasidek qabul qiladi.

O'lmas Jamol odamshinavanda, haqiqiy rindona tabiat sohibi edi. Uning she'r'lari davralarda tug'ilar, hali matbuotda chiqmasidanoq yoki kitobda chop etilmay turib ma'lumu mashhur san'atkorlardan tortib, havaskor qo'shiqchilarning ham so'zi orqali xalqqa yetib bordi.

Shoir kamtarin hayot kechirib o'tdi. U bo'lgan davralarda esa qizg'in suhbatlar, mushoiralar kechardi. Ijdokor she'riyatida nafosat, dilbarlik bilan birga donishmandlik ham yaqqol sezilib turadi. Insoniy dardlar, ezgulik uchun kurash, ahillik, vafo va sadoqat, el-yurtga muhabbat, haqiqatparvarlik, insonparvarlik kuylanadi. Shu bois bu she'r'larni Faxriddin Umarov, Ortiq Otajonov, Kamoliddin Rahimov, G'ulomjon Yoqubov, Hojiakbar Hamidov singari o'zbek qo'shiqchilari qanchalik sevib kuylagan bo'lishsa, tojik xonandayu sozandalari ham bot-bot shoir ijodiga murojaat etib turishadi.

Yuqorida eslaganimiz Jo'rabek Murodovning



qo'shig'i do'stlikni tarannum etgan qo'shiqlarning cho'qqisi bo'ldi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Tojikiston Respublikasiga tashrfi chog'ida minbardan shu she'rdan iqtibos keltirib o'qib bergani gulduros olqishlar bilan kutib olindi. Xalq o'rmidan turib qarask chalb olqishlaganini katta ekranlarda barcha ko'r'di. O'lmas shoirming O'lmas she'r'i katta sahnalarda yangidan kuylanayotgandek bo'ldi.

O'lmas Jamol ko'liga endi qalam olgan yosh shoirlarga mumtoz shoirlarning kamida besh ming satr she'rini yoddan bilish zarurligini bot-bot eslatib turardi. O'zi ham istalgan ulug' shoirdan xoh forsch'a, xoh turkiycha yoddan o'qib, misollar keltirishni odat tusiga kiritgandi. Shu tariqa u mahorat cho'qqilarini egallab, o'zi tengdosh shoirlar orasida ancha murakkab bo'lgan aruz vaznida ijod qilgani bilan ehtirom qozondi.

O'lmas Jamol o'zbek va tojik xalqlarining do'stligi abadiyligi, ajratib bo'lmas hayotiy, asriy an'analarga egaligi haqida:

Bu do'stlik nainki ikki otash qalb,

Balki qon va jondosh ikki butun xalq —

Tojigu O'zbekning asl do'stligi,

Umrbod kulimas ahil do'stligi,

deb yozgandi.

Haqiqatan ham, taniqli shoir o'z ijodi orqali o'zbek-tojik xalqlari taqdiri, tarixi, turmushi va do'stligini umr bo'yi tarannum etdi. Ikki xalqning uzilmas rishtalari mustahkamligi, taraqqiyoti va yuksalishi yo'lda fidoyilik ko'rsatdi. Shu tariqa o'zbeklarning ham, tojiklarning ham qalbini zabt etdi. U umri davomida insonlar dardu tashvishi bilan yashadi, adabiyotga sodiq bo'ldi, so'zdan uzoglashmadi. Bu xizmatlari munosib baholalanib, turli davlat va adabiy mukofotlar bilan taqdirlandi.

Bugun o'z she'r'larida millatlar do'stligi, sof insoniy tuyg'ular, ezgulik, yaxshilik kabi ulug' tushunchalarni kuylagan shoir ijodi Tojikistonda ham, O'zbekistonda ham birdek sevib mutolaa qilinadi.

O'lmas Jamol hayoti va ijodiga bag'ishlangan “Ikki chaman bulbuli” to'plamida ulug' so'z darg'alari — Chustiy, Charxiydan tortib ustozlarimiz Abdulla Oripov, Erkin Vohidov kabi qator yozuvchi-shoirlarning e'tiroflari, yodnomalari jamlangan. Ularni mutolaa qilar ekansiz, shoir g'oyat samimiy, bahor gullaridek ko'rkam, tonggi shudringlar kabi toza tuyg'ular aks etgan misralari jamlangan. Ularini mutolaa qilar ekansiz, shoir g'oyat samimiy, bahor gullaridek ko'rkam, tonggi shudringlar kabi toza tuyg'ular aks etgan misralari jamlangan. Ularni mutolaa qilar ekansiz, shoir g'oyat samimiy, bahor gullaridek ko'rkam, tonggi shudringlar kabi toza tuyg'ular aks etgan misralari jamlangan.

Har ikki qondosh va qardosh — o'zbek hamda tojik xalqlari shu kunlarda O'lmas Jamol tavalludining 90 yilligini munosib kutib olishar ekan, davralarda uning “Ikki tili bir xalq vasfiga” deb nomlangan she'ri bot-bot o'qilayotganiga guvoh bo'lasiz:

“O'zbekiston o'g'lidurman,

tojigim gufto pisar,

Rost go'yam, har kadome

sevgilimdirl jon qadar.

Ona deb aytam birovini,

ul biri menga padar,

Hamchu du chashmi siyoham

ikki xalq ham mo'tabar,

Mehru yodash dar vujudam —

porlagan shamsu qamar”.

Bu she'r bugun o'zbek va tojik xalqlarining do'stlik madhiyasiga aylangan. Zero, har ikkala mamlakat o'rtasida barcha sohada aloqalar kuchayib borayotgan mahalda ana shunday euzu so'zlar ham faqat yaxshilikka, birodarligimiz ko'priklari mustahkam bo'lishiga xizmat qilishi, shubhasiz.

O'lmasbek XO'JAYEV,
tadqiqotchi,
Shoyim BO'TAYEV
(“Xalq so'zi”).

Tailandning Pattayya shahrida para pauerlifting bo'yicha jahon kubogi musobaqasi o'tkazildi.

Unda O'zbekiston terma jamoasi a'zolari 6 ta oltin, 2 ta kumush, 3 ta bronza, jami 11 medalni qo'lga kiritdi.

Xalq so'zi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-542. 14 275 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taqab. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuktib olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:

Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53;

e'lonlar 71-259-74-55.



“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 23.35 Topshirildi — 00.50

1 2 3 4 5 6